RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Raximov Xasan Shukurjonovich

i.f.f.d., PhD,

Namangan davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Email: hasanboyrahimov1990@gmail.com

ORCID: 0009-0003-3981-4626

Annotatsiya. Mazkur maqolada temir yo'l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda O'zbekiston Respublikasi tajribasida erishilayotgan natijalar tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada temir yo'l sohasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish jarayonida duch kelinayotgan muammolar — texnik infratuzilmaning yetarli darajada moslashmaganligi, IT-mutaxassislar yetishmasligi hamda raqamli xavfsizlik masalalari haqida ham fikr yuritilgan. Yakuniy xulosalarda ushbu muammolarni bartaraf etish va iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, infratuzilma.

Abstract. This article analyzes the importance of digital technologies in modernizing rail transport infrastructure, their impact on economic efficiency, and the results achieved in the Republic of Uzbekistan. It also examines the challenges faced in developing digital infrastructure in the railway industry, including insufficient adaptation of the technical base, a shortage of IT specialists, and digital security issues. The conclusions offer practical proposals for addressing these challenges and further improving economic efficiency.

Key words: rail transport, digital technologies, economic efficiency, digital transformation, infrastructure.

Аннотация. В статье анализируется значение цифровых технологий в модернизации инфраструктуры железнодорожного транспорта, их влияние на экономическую эффективность, а также результаты, достигнутые на примере Республики Узбекистан. Также рассматриваются проблемы, возникающие при развитии цифровой инфраструктуры в железнодорожной отрасли: недостаточная адаптация технической базы, нехватка IT-специалистов, проблемы цифровой безопасности. В выводах представлены практические предложения по устранению этих проблем и дальнейшему повышению экономической эффективности.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, цифровые технологии, экономическая эффективность, цифровая трансформация, инфраструктура.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda transport tizimlarining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Xususan, temir yo'l transporti infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonlari nafaqat tashish xizmatlarining sifatini oshirish, balki umumiy iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar — bu sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), raqamli tvn (Digital Twin) va bulutli hisoblash (Cloud computing) kabi yechimlarni o'z ichiga olgan tizimlardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmonida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, unda O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish hamda milliy transport tizimining salohiyatini oshirish belgilab berilgan. Ayniqsa, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish va logistika jarayonlarini raqamli platformalarga o'tkazish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshmoqda.



Raqamli texnologiyalar temir yo'l infratuzilmasining barcha bosqichlarida — rejalashtirish, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish, xavfsizlik, energetika va mijozlar bilan o'zaro aloqalarda qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, temir yo'l infratuzilmasining raqamli modernizatsiyasi iqtisodiy samaradorlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Masalan, raqamli boshqaruv tizimlari ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi, energiya sarfini optimallashtiradi hamda transport resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada, ishlab chiqarish unumdorligi ortadi, xizmat sifati yaxshilanadi va foyda hajmi ko'payadi. Aynan shu jihatdan raqamli texnologiyalarni temir yo'l sohasiga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ilmiy va amaliy masalaga aylanmoqda.

Ushbu maqolada temir yo'l infratuzilmasini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, xorijiy mamlakatlar tajribasi va O'zbekiston Respublikasi sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo'l transporti infratuzilmasini raqamli transformatsiya qilish masalasi jahon iqtisodiyoti va transport tizimlari barqaror rivojlanishining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlar, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlar ushbu jarayonning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini keng tahlil qilganlar.

Transport tizimining raqamli transformatsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi, raqamli boshqaruv va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida logistika oqimlarini muvofiqlashtirish natijasida energiya tejallishi va xarajatlar kamayishini asoslab beradi (Banister D, 2013)¹. Sun'iy intellekt, Big Data va IoT texnologiyalarini temir yo'l tizimida qo'llash orqali xavfsizlik va ishonchlilikni oshirish imkoniyatlari, raqamli temir yo'l tizimlarining ishlab chiqarish unumdorligiga ijobiy ta'siri raqamli tvin texnologiyalari misolida keltirilgan (Roberts C, 2020)².

Rossiyalik iqtisodchi Kozlov V.A. (2018)³ temir yo'l infratuzilmasini raqamlashtirish jarayonini tahlil qilib, raqamli tizimlar orqali ekspluatatsiya xarajatlarini 10–15% gacha kamaytirish mumkinligini asoslab bergan. Kenjebayev A. (2021)⁴ esa raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlarini — smart-logistika, elektron chiptalash tizimlari va avtomatlashtirilgan monitoring modellarini tahlil qilgan.

O'zbekistonda ham temir yo'l transporti infratuzilmasining raqamli modernizatsiyasi masalalari mustaqil tadqiqot mavzulariga aylangan. Jumladan Xodjayev B.X. (2022)⁵ "Transport tizimida innovatsion rivojlanish strategiyasi" nomli monografiyasida temir yo'l sohasida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, elektron hujjat aylanishi va raqamli logistika markazlarini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini ko'rsatib o'tgan. Abdullayev O.M. (2021)⁶ ilmiy ishida O'zbekiston temir yo'llari tizimidagi mavjud raqamli yechimlar — "Smart Station", "E-ticket", "Digital Cargo" loyihalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini empirik tahlil qilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni temir yo'l infratuzilmasiga joriy etish transport tizimining barqaror ishlashi, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, MDH va O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning institutsional, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda temir yo'l transporti infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va qiyosiy yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini temir yo'l transporti tizimining raqamli transformatsiyasi, iqtisodiy samaradorlik va infratuzilma modernizatsiyasi tushunchalari bo'yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Shuningdek, tadqiqotda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hamda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2018–2024-yillar uchun ochiq statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar

1 Banister D. Transport Planning and Sustainable Mobility. – London : Routledge, 2013. – 274 p.

2 Roberts C. Digital Railway Systems and Innovation. – Berlin : Springer Nature, 2020. – 312 p.

3 Козлов В.А. Цифровизация в железнодорожном транспорте: тенденции и перспективы // Транспортная академия России. – Москва, 2018. – №4. – С. 23–29..

4 Кенжебаев А. Рақамли технологияларни транспорт инфратузилмасига татбиқ этиш механизмлари // Транспорт ва логистика илмий журнали. – Нур-Султон, 2021. – №2. – Б. 34–41.

5 Xodjayev, B.X. (2022). Transport tizimida innovatsion rivojlanish strategiyasi. Toshkent: TDIU nashriyoti.

6 Abdullayev, O.M. (2021). Temir yo'l transporti infratuzilmasining raqamli modernizatsiyasi. Toshkent: "Fan va taraqqiyot" jurnali, №3, 56–64-betlar.



— elektron chiptalash, avtomatlashtirilgan dispetcher tizimlari, “Smart Station” hamda IoT asosidagi texnik monitoring joriy etilganidan keyingi samaradorlik ko'rsatkichlari (xarajatlarning kamayishi, yo'lovchi oqimining o'sishi, xizmat sifatining oshishi) o'rganildi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tizimli baholash imkonini beradi va O'zbekiston temir yo'l transporti sohasida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Raqamli texnologiyalar temir yo'l infratuzilmasining barcha bosqichlarida — rejalashtirish, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko'rsatish, xavfsizlik, energetika hamda mijozlar bilan o'zaro aloqalarda qo'llanilmoqda. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

IoT sensorlari yordamida relslar, poezdlar va inshootlar holatini real vaqt rejimida kuzatish;

Big Data orqali transport oqimlari va xarajatlarni optimallashtirish;

Sun'iy intellekt yordamida poezd harakatini prognozlash hamda xavfsizlikni ta'minlash;

Digital Twin texnologiyasi yordamida butun temir yo'l tarmog'ining virtual nusxasini yaratish;

Raqamli chipta tizimlari orqali iste'molchilarga qulay xizmat ko'rsatish.

Yevropa Ittifoqining “Digital Rail” loyihasi doirasida barcha temir yo'l tarmoqlarida yagona raqamli boshqaruv tizimi — ERTMS (European Rail Traffic Management System) joriy etilmoqda. Ushbu tizim poezdlar o'rtasidagi masofani aniq o'lchash orqali avariya xavfini 40 foizgacha kamaytirgan.

Iqtisodiy samara — bu ma'lum bir natijaga erishish jarayonida olingan foyda yoki tejash miqdorini bildiradi. Iqtisodiy samaradorlik esa natijaning unga sarflangan resurslarga (vaqt, mablag', mehnat, energiya) nisbati orqali o'lchanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishda iqtisodiy samaradorlikni quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- xarajatlarning kamayishi ($C_{\downarrow}$);
- ishlab chiqarish hajmining ortishi ($Q_{\uparrow}$);
- xizmat sifati va tezligi ($T_{\uparrow}$);
- energiya tejamlilik ($E_{\downarrow}$);
- nosozliklar va to'xtalishlar kamayishi ($D_{\downarrow}$).

Formulaviy ifoda:

$$E_s = \frac{Q_1 - Q_0}{C_1 - C_0}$$

Bu yerda:

Q_1, Q_0 — raqamlashtirishdan oldingi va keyingi ishlab chiqarish hajmi;

C_1, C_0 — xarajatlar hajmi.

Agar $E_s > 1$ bo'lsa, raqamli texnologiya iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.

So'nggi yillarda “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tomonidan bir qator raqamli loyihalar amalga oshirildi:

1-jadval. O'zbekiston temir yo'l tizimida raqamli loyihalarining amalga oshirilishi va ularning asosiy natijalari

Raqamli loyiha	Amalga oshirish yili	Asosiy natija
Avtomatlashtirilgan poezd dispetcherlik tizimi (ADCS)	2021	Poezdlar harakati xavfsizligi oshdi, kechikishlar 15% ga kamaydi
Elektron chipta tizimi	2020	Yo'lovchilar uchun xizmat sifati oshdi, naqd pul aylanishi kamaydi
“Smart Station” loyihasi	2023	Stansiyalarda energiya sarfi 12% ga kamaydi
IoT asosidagi texnik monitoring	2024	Texnik xizmat oralig'i optimallashtirildi, nosozliklar 30% ga kamaydi

Bu o'zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni oshirdi. Masalan, 2024-yilda “O'zbekiston temir yo'llari” AJning operatsion xarajatlari 6,5 foizga qisqargan, logistika samaradorligi esa 8,2 foizga oshgan.

Xorijiy tajribalarni o'rganish natijasida aniqlanishicha, AQSHda “Positive Train Control (PTC)” tizimi 2015-yildan boshlab joriy etilgan. Ushbu tizim GPS, radioaloqa va markaziy kompyuter tarmoqlaridan foydalanadi. Natijada, temir yo'l avariylari 50 foizga kamaygan, poezdlar harakati samaradorligi esa 20 foizga oshgan.

Germaniyada “Deutsche Bahn” kompaniyasi “Digital Rail Germany” dasturi orqali harakat xavfsizligi, signalizatsiya va poezdlarni avtomatik boshqarish tizimini joriy etgan.



Yaponiyada esa “Japan Railways” sun’iy intellekt yordamida relslar va vagonlar holatini tahlil qiluvchi “Smart Maintenance” tizimini ishlab chiqqan. Mazkur tizim tufayli texnik xizmat xarajatlari 25 foizga, xizmat ko’rsatish sifati esa 18 foizga oshgan.

Shu bilan bir qatorda, ayrim muammolar ham mavjud. O’zbekiston temir yo’l sohasida raqamli transformatsiya jarayonida quyidagi to’siqlar kuzatilmoqda:

- texnik infratuzilmaning yetarlicha moslashmaganligi;
- malakali IT-mutaxassislar yetishmasligi;
- raqamli xavfsizlik tizimlarining sustligi;
- ayrim viloyatlarda internet infratuzilmasining zaifligi.

O’zbekiston Respublikasida so’nggi yillarda raqamli iqtisodiyot tamoyillarini barcha tarmoqlarga, jumladan, temir yo’l transporti infratuzilmasiga joriy etish bo’yicha izchil siyosat yuritilmoqda. “O’zbekiston temir yo’llari” AJ tomonidan 2018–2024-yillar oralig’ida raqamli transformatsiya strategiyasi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Mazkur strategiyaning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

Elektron boshqaruv tizimi (E-Management) — tashkiliy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;

“Smart Station” loyihasi — temir yo’l vokzallarida raqamli xizmatlarni joriy etish;

IoT (Internet of Things) asosidagi monitoring tizimlari — texnik holatni real vaqt rejimida kuzatish;

“Digital Cargo” — yuk tashish jarayonlarini raqamlashtirish va hujjat aylanishini optimallashtirish;

“Automated Dispatch System (ADS)” — poezd harakatini avtomatik boshqarish tizimi;

Big Data va AI texnologiyalari — transport oqimini tahlil qilish va prognozlash uchun qo’llanilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida raqamli texnologiyalar ulushi yil sayin oshib bormoqda. Bu esa transport samaradorligi, xizmat sifati va xavfsizlik ko’rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda (2-jadval).

2-jadval. Raqamli transformatsiyaning asosiy yo’nalishlari va natijalari (2018–2024-yillar kesimida)⁷

Yo’nalish	Amalga oshirilgan ishlar	Natija
Elektron chipta tizimi (“E-ticket”)	2020-yil yakunida barcha vokzallarda to’liq joriy etildi	Yo’lovchi chiptalarining 92 % elektron shaklda sotilmoqda
Yuk tashish tizimi (“Digital Cargo”)	2021-yilda ishga tushirildi	Yuk hujjat aylanishi 45 % ga qisqardi
IoT texnologiyalari asosidagi texnik monitoring	2022-yilda 50 ta lokomotivga o’rnatildi	Ta’mirlash davriyligi 17 % ga kamaydi
Avtomatlashtirilgan dispetcherlik tizimi (ADS)	2023-yilda sinovdan o’tkazildi	Poyezdlar kechikish holatlari 12 % ga qisqardi
Sun’iy intellekt asosida texnik nosozliklarni bashoratlash tizimi	2024-yilda joriy etilmoqda	Samaradorlik +8 %, xavfsizlik indeksi +5 %

Ushbu jadvaldan ko’rinadiki, raqamli transformatsiyaning asosiy yo’nalishlari temir yo’l tizimining barcha bo’g’inlarini qamrab olgan. Avvalo, elektron chipta tizimining joriy etilishi yo’lovchilarga qulaylik yaratib, xizmat sifatini oshirdi. “Digital Cargo” loyihasi esa yuk tashish jarayonlarida byurokratik to’siqlarni kamaytirib, tezkorlikni ta’minladi. IoT asosidagi texnik monitoring tizimi lokomotivlarning texnik holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Buning natijasida rejalashtirilgan to’xtashlar soni kamayib, texnik xizmat samaradorligi oshdi. “ADS” tizimi esa poezdlar harakatini muvofiqlashtirib, kechikishlar sonini kamaytirdi. 2024-yilda joriy etilgan sun’iy intellekt tizimlari xavfsizlik ko’rsatkichlarini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, mazkur yo’nalishlar transport jarayonlarining raqamli boshqaruvga o’tishini tezlashtirdi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, vaqtni tejash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini berdi. Demak, raqamli transformatsiya temir yo’l tarmog’ida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi (3-jadval).

3-jadval. Raqamli texnologiyalar ulushining o’sish dinamikasi (2018–2024)⁸

Yillar	Raqamli texnologiyalar ulushi (%)	Elektron xizmatlar ulushi (%)	Yo’lovchi tashish samaradorligi o’sishi (%)	Ekspluatatsiya xarajatlari kamayishi (%)
2018	15	10	0	0
2019	23	18	2.8	1.5
2020	36	32	4.9	3.2
2021	48	45	7.3	5.0

⁷ O’zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, “O’zbekiston temir yo’llari” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

⁸ O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan



tizimlar ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirib, texnik nosozliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi va foydalanuvchilar uchun vaqt tejallishini ta'minlaydi (6-jadval).

6-jadval. Raqamli texnologiyalar ulushining 2025–2030-yillar prognoz ko'rsatkichlari¹⁰

Yil	Raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi (%)	Ekspluatatsiya xarajatlari qisqarishi (%)	Mehnat unumdorligi o'sishi (%)	Xizmat sifati indeksi (100 ballik tizimda)	Umumiy iqtisodiy samaradorlik o'sishi (%)
2025	82	9.5	13.8	78	14.2
2026	85	10.3	14.6	80	15.1
2027	88	11.0	15.3	82	16.0
2028	91	11.6	16.1	84	17.1
2029	94	12.2	16.8	86	18.3
2030	97	13.0	17.5	88	19.7

O'zbekiston temir yo'l transporti tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlik, xizmat sifati va xavfsizlik sezilarli darajada oshmoqda. 2030-yilga borib temir yo'l tizimi to'liq raqamli boshqaruv asosida ishlaydigan zamonaviy infratuzilmaga aylanadi. Raqamli texnologiyalar orqali ekspluatatsiya xarajatlari kamayib, mehnat unumdorligi va transport xizmatlari sifati oshadi. Shuningdek, bu jarayon O'zbekistonning mintaqaviy logistika markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transporti tizimini raqamlashtirish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy samaradorlik, xavfsizlik, mehnat unumdorligi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar infratuzilmaning texnik xizmat xarajatlarini kamaytiradi, xizmat sifatini oshiradi va foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

Temir yo'l transporti tizimida raqamli transformatsiya jarayoni O'zbekiston iqtisodiy modernizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. 2018–2024-yillar davomida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida transport jarayonlarini boshqarish avtomatlashtirilib, xizmat ko'rsatish sifati yaxshilandi. Raqamli texnologiyalarni qo'llashning asosiy iqtisodiy samaralari quyidagilarda namoyon bo'ldi: ekspluatatsiya xarajatlarining 8,4 foizga qisqarishi, yo'lovchi tashish samaradorligining 13,5 foizga oshishi, mehnat unumdorligining esa 17 foizgacha o'sishi. Bu korxona foyda marjasining ortishiga va investitsion jozibadorlikning oshishiga olib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat texnik jarayonlarni soddalashtiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham tizimli ravishda oshiradi. IoT, Big Data va AI (sun'iy intellekt) kabi texnologiyalar temir yo'l tizimida nosozliklarni oldindan aniqlash, xavfsizlikni oshirish hamda texnik xizmat ko'rsatishni optimallashtirish imkonini bermoqda.

2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni to'liq joriy etish darajasi 97 foizga yetadi, xizmat sifati indeksi 88 ballgacha ko'tariladi, iqtisodiy samaradorlik esa 20 foiz atrofida o'sadi. Bu O'zbekiston temir yo'l tizimini Markaziy Osiyodagi eng samarali raqamli transport tarmog'iga aylantirish imkonini beradi.

Ilmiy tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ tarkibida Raqamli innovatsiyalar markazini tashkil etish va barcha raqamli loyihalarni yagona boshqaruv ostiga olish;

temir yo'l sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish dasturini joriy etish;

xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda “Smart Rail Uzbekistan” dasturini amalga oshirish orqali sun'iy intellekt asosida dispetcherlik, xavfsizlik va texnik xizmat ko'rsatish tizimlarini integratsiya qilish;

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq IoT infratuzilmasi va ma'lumotlarni bulutli boshqaruv tizimlarini kengaytirish;

Tahliliy platforma (Data Hub) yaratish orqali transport oqimlari va yuk tashish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish.

Umuman olganda, temir yo'l transporti infratuzilmasini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va ekologik barqarorlikni kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayon O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishini tezlashtiradi hamda mintaqaviy transport-logistika markazi sifatida mavqeini mustahkamlaydi.

10 muallif prognoz hisob-kitoblari

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. PQ-4822-son, 2021-yil 3-avgust. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 05.10.2020-yil. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni
4. Banister D. Transport Planning and Sustainable Mobility. – London : Routledge, 2013. – 274 p.
5. Roberts C. Digital Railway Systems and Innovation. – Berlin : Springer Nature, 2020. – 312 p.
6. Козлов В.А. Цифровизация в железнодорожном транспорте: тенденции и перспективы // Транспортная академия России. – Москва, 2018. – №4. – С. 23–29.
7. Кенжебаев А. Рақамли технологияларни транспорт инфратузилмасига татбиқ этиш механизмлари // Транспорт ва логистика илмий журнали. – Нур-Султон, 2021. – №2. – Б. 34–41.
8. Xodjayev, B.X. (2022). Transport tizimida innovatsion rivojlanish strategiyasi. Toshkent: TDIU nashriyoti.
9. Abdullayev, O.M. (2021). Temir yo'l transporti infratuzilmasining raqamli modernizatsiyasi. Toshkent: "Fan va taraqqiyot" jurnali, №3, 56–64-betlar.
10. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ rasmiy sayti: <https://railway.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti: <https://www.stat.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti: mintrans.uz
13. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy sayti: <https://mift.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>